

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 22-noyabr kuni o'tkaziladi

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/meeting-20231122>

"O'ZKIMYOSANOAT" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 22-noyabr kuni soat 17:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy manzilida joylashgan jamiyatning ma'muriy binosida o'tkaziladi.

KUN TARTIBI:

1. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zkimyosanoat" AJning ustav kapitali miqdorini belgilash.
4. "O'zkimyosanoat" AJning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash.
5. "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya etish majburiyatini qabul qilish hamda xabar shaklini tasdiqlash.
6. "O'zkimyosanoat" AJ ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.

Umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxati 2023-yil 16-noyabr holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga asosan tuziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2023-yil 22-noyabr kuni soat 16:00 da boshlanib, soat 17:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan kelishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98.

"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi